

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

KIMYO-TEXNIKA FAKULTETI

(fakultet nomi)

АЛЛАБЕРГАНОВ УМРБЕК МАХМУДОВИЧ

5522400 «Kimyoviy texnologiya» ta'lim yo`nalishi bo'yicha

(shifri va ta'lim yo`nalishi nomi)

bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Yangiariq tumanida shisha paxta ishlab chiqarish tsexini
loyixalash.

Ilmiy rahbar:

dots. Matchanov Sh.K.

Urganch 2013 yil

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

KIMYO-TEXNIKA FAKULTETI

(fakultet nomi)

KIMYOVIY TEXNOLOGIYALAR KAFEDRASI

(kafedra nomi)

**YANGIARIQ TUMANIDA SHISHA PAXTA ISHLAB CHIQARISH TSEXINI
LOYIXALASH.**

(bitiruv malakaviy ish mavzusining nomi)

Bajaruvchi: **Allaberganov Umrbek Maxmudovich**

Rahbar dots. **dots. Matchanov Sh.K.**

Urganch shahri
2013-yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

KIMYO-TEXNIKA FAKULTETI

(fakultet nomi)

KIMYOVIY TEXNOLOGIYALAR KAFEDRASI

(kafedra nomi)

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO`YICHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

1. Talaba **Allaberganov Umrbek Maxmudovich** ga Universitet rektorining «_____»-sonli _____ buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun **Yangiariq tumanida shisha paxta ishlab chiqarish tsexini loyixalash.**
2. Kafedra majlisining qaroriga binoan **dots. Matchanov Sh.K.** bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.
3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi
Kirish, Tanlangan mavzuni texnik iqtisodiy jihatdan asoslash, Texnologik qism, Ekologik masalalar yechimi, Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va kompyuterlash tizimida nazorat qilish, Inson faoliyatining xavsizligi, Iqtisod qismi.
4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar Otaqo'ziev T.A., Turobjonov S.M., Muxamedbaeva Z.A. Kimyo sanoati jixozlari va ishlab chiqarishning ekologik muammolari. Toshkent. TDTU nashriyoti, 2002 y, 121 b.
A.A.Ismatov, T.A.Otaqo'ziev va boshqalar. Noorganik materiallar kimyoviy texnologiyasi. T. «O'zbekiston» 2002.
Sokolov R.S. Ximicheskaya texnologiyayu. M.. "Vlados", 2000.-167 b.
Ilevich A.P. Mashini i oborudovanie dlya zavodov po proizvodstvu keramiki i ogneuporov. M. «Visshaya shkola», 1979
T.A. Otaqo'ziev, Z.A. Muhamedboeva. Kimyo sanoatida maydalash. T. "O'zbekiston" 2004 yil olinadi. olinadi.
5. Bitiruv malakaviy ishga 5 ta chizma ilova qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

<i>№</i>	<i>Bajarilgan ishning mazmuni</i>	<i>Bajarish muddati</i>
1	Tanlangan mavzuni texnik iqtisodiy jihatdan asoslash	14.01.2013 yil
2	Texnologik qism	1.03.2013 yil
3	Ekologik masalalar yechimi	25.04.2013 yil
4	Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va kompyuterlash tizimida nazorat qilish	10.05.2013 yil
5	Inson faoliyatining xavsizlig	15.06.2013 yil
6	Iqtisod qismi.	10.06.2013 yil

Bitiruv malakaviy ish rahbari: **dots. Matchanov Sh.K.**

Bajaruvchi talaba: **Allaberganov Umrbek Maxmudovich**

2013 yil «_____» _____

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2013 yil tasdiqlandi

(«_____»- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri: _____

(imzo)

3-ilova

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI

Talaba **Allaberganov Umrbek Maxmudovich**

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: _____

Yangiariq tumanida shisha paxta ishlab chiqarish tsexini loyixalash.

Bitiruv malakaviy ish xajmi: 75 ta kompyuterda terilgan betdan iborat

Tushuntirish qismi: 45 bet

Ilovalar soni: 5 ta

Mavzuning dolzarbligi Bug'ungi kunda Respublikamizda tadbirkorlikka, yangi turdagi maxsulotar ishlab chiqarishga katta e'tibor berilmoqda. Axoli soni o'sgan sari uning xar xil turdagi qurilish materiallariga bo'lgan talabi oshmoqda. Axolining bu turdagi maxsulotlarga bo'lgan extiyojini qondirishda Respublikamizdagi mahalliy mineral xom ashyo materiallarini o'zlashtirib yangi turdagi yoki chetdan valo'ta xisobiga olib keltirilayotgan qoplama materiallarini ishlab chiqarish talab qilinadi. Bunday ishlab chiqarishlarni tashkil qilishda axoli soni uning yashash sharoitini ishchi ko'chi, qurilish maydoni, muxandislik kommunikatsiyalari e'tiborga olinishi kerak.

Loyihalanayotgan tsex zavod tarkibida yoki shunga yaqin va qulay joylarda, enyergetik baza, gaz ta'minoti, suv ta'minoti e'tiborga olinishi kerak. Men shularni e'tiborga olgan xolda Yangiariq tumani markazining janubida ishlab chiqarish zonasida loyihalashga kirishildi..

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi Mulkdorlarning o'rta sinfini shakllantirish, ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlari yaratish va shu asosda aholi daromadlarini ko'paytirish va farovonligini oshirishning muhim omil, mamlakat taraqqiyoti yo'lidagi faol harakatlantiruvchi kuch sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan keng chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish.

Sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda yuqori texnologiyaga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari

tomonidan ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar joriy etilish kerakligita'kidlandi.

Bitiruvchi talabanning mustaqil ishini bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari: U Allaberganov o'ziga topshirilgan vazifani mustaqil bajara oladi. Mavzuga oid adabiyotlarni izlab topa oladi, Internetdan mustaqil foydalanib biladi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari: Ishda komp'yuter texnologiyalarini qo'llab, yigiruv korxonasining laboratoriyasini yangi zamonaviy jihozlari bilan boyitgan.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi
Loyixalanayotgan korxona Yangiariq tumani xududida bajarilayotganligi munosabati bilan shu xududdagi 20 kishi ish bilan ta'minlanadi. Korxonaning 1 yilda olayotgan foydasi 100 000 000 so'mga teng bo'lib o'z-o'zini qoplash 2 yilga teng.

Shuni aytish mumkinki Allaberganov Umrbekning shisha paxta ishlab chiqarish korxonasi loyihasi shaxar va qishloqlarimizda yangidan qurilayotgan binolarni issiqlik izolyatsiya qilish bilan birga, jamiyatimiz insonlarining ish joylari bilan ta'minlashda, Respublikamizning rivojlanishda o'zining munosab xissasini qo'shadi degan umiddaman.

Bitiruv malakaviy ish rahbari: **dots. Matchanov Sh.K.**

2013 yil «___» _____

Urganch davlat universiteti

Kimyo-texnika fakulteti

5522400 «Kimyoviy texnologiya» ta'lim yo'nalishi

Allaberganov Umrbek Maxmudovichning

Bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi Yangiariq tumanida shisha paxta ishlab chiqarish tsexini loyixalash.

Malakaviy ishning hajmi 10 000 soʻzdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 75 sahifadan iborat

b) ilovalar soni: 5 ta

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi Bitiruv malakaviy ish mavzusi dolzarb boʻlib berilgan topshiriqqa toʻla mos keladi. Shisha paxtai ishlab chiqarishda qoʻllaniladigan uskunarlar texnologik xisobi keltirilgan. Loyixani texnik-iqtisodiy jihatidan asoslab, qulay yerda joylashganligini koʻrsatib oʻtgan. Shundan soʻng material balans xisoblarini, texnologik xisoblashlarni amalga oshirib, maxsulot ishlab chiqarish uchun kerak boʻladigan xom ashyolardan elektr energiya, suvning va gazning miqdorlarini hisoblab chiqilgan.

Kimyo va boshqa sanoatlar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda mutaxassislik fanlari katta ahamiyatga ega. Bu fanlar talabalarga oʻz ixtisosliklarini nazariy jihatdan chuqur egallashga ularning muhandislik bilimlarini mustaxkamlashga, ishlab chiqarish samaradorligini qaysi yoʻl bilan oshirish va texnologik jarayonlardan unumli foydalanish mumkinligini oʻrgatadi.

Bitiruv malakaviy ishida texnologik jarayonlarni boshqarish borasida eng maʼsulyatli ishlar shubxasiz muhandis-texnik kadrlar zimmasiga tushadi. Bugungi kun muhandislari yangi texnika va texnologiyadan foydalanishga, texnologik jarayonlarni keng joriy etishga, ishlab chiqarish zaxiralarini aniqlash va uni jadallashtirishga qodir boʻlishlari kerak. Xususan muhandislar oldida fan-texnika taraqqiyotining yoʻlboshlovchisi boʻlishdek maʼsulyatli vazifa turadi. Shuning uchun ishlab chiqarishning texnologik asoslarini shu soha mutaxassislarigina emas, balki muhandis texnolog, konstruktorlar va boshqalar ham bilishlari shart

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi Shisha paxta xom ashyoni suyuqlantirib olingan, tartibsiz joylashgan shisha tolalardan tashkil topgan material. Shisha paxta ishlab chiqarish uchun xom ashyo vazifasini shisha pishirish uchun shaxta (kvars qumi, kaltsinirlangan soda va natriy sulfat) va shisha bo'laklari bajaradi. Shisha tola kimyoviy barqarorligi va mustahkamligi bilan farqlanadi. Shisha paxtali buyumlar qurilish konstruktsiyalarini issiqlik izolatsiyasi uchun keng qo'llaniladi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi Loyihalanayotgan korxona Yangiariq tumani hududida bajarilayotganligi munosabati bilan shu hududdagi 30 kishi ish bilan ta'minlanadi. Korxonaning 1 yilda olayotgan foydasi 289 264 178,7 so'mga teng bo'lib o'z-o'zini qoplash 2,3 yilga teng.

Shuni aytish mumkinki men loyihalanayotgan shisha paxta maxsuloti ishlab chiqarish korxonasi jamiyatimiz insonlarining ish joylari bilan ta'minlashda, respublikamizning rivojlanishida o'zining munosib hissasini qo'shadi degan umiddaman.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari Bitiruv malakaviy ishida texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish borasida eng masuliyatli ishlar shubxasiz muxandis texnologlar zimmasiga tushadi. Bugungi kun muxandislari yangi texnika va texnologiyadan foydalanishga, texnologik jarayonlarni keng joriy etishga, ishlab chiqarish zaxiralarini aniqlash va uni jadallashtirishga qodir bo'lishlari kerak.

Bitiruv malakaviy ishidagi bazi orfagrafik va imloviy kamchiliklar mavjud

Taqrizchi:_____

Umumiy kimyo kafedراسи mudiri dots. Xasanov Sh

(imzo)

(mansabi, ish-joyi, darajasi, f.i.sh.)

2013 yil «_____» _____

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

№	Baholanadigan bo`limlar	Eng yuqori ko`rsatkich ball hisobida
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35
3	“Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo`yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma`ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e'tiborga olingan holda baholash mezonlariga o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch davlat universiteti **Kimyo-texnika fakulteti**
5522400 «Kimyoviy texnologiya» yo`nalishining bitiruvchisi
Allaberganov Umrbek Maxmudovichning

Yangiariq tumanida shisha paxta ishlab chiqarish tsexini loyixalash.

Mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi

DAK ning «_____» 2013 yil «_____» dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o`zlashtirish ko`rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo`limlar	Eng yuqori ko`rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	
3	“Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	BMI mavzusi bo`yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma`ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	

Jami:

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. **Yangiariq tumanida shisha paxta ishlab chiqarish tsexini loyixalash.** mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun _____ lik o`zlashtirish ko`rsatkichi belgilanish va «_____» deb baholansin.

2. _____

DAK raisi: _____

A`zolari: _____

2013 yil «_____» _____

Urganch davlat universiteti **Kimyo-texnika** fakulteti

Kimyoviy texnologiyalar kafedrası

Bitiruv malakaviy ish _____sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchi **Allaberganov Umrbek Maxmudovich** Bitiruv malakaviy ishning mavzusi Yangiariq tumanida shisha paxta ishlab chiqarish tsexini loyixalash.

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi **dots. Matchanov Sh.K.**

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2013 yil «_____»_____da o`tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib **dots. Xasanov Sh** tayinlandi.

Kafedra mudiri: **Quramboev Sh.**

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo`yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani: **dots. Babaev Z.K.**

Urganch davlat universiteti **Kimyo-texnika** fakulteti
Kimyoviy texnologiyalar kafedrası
5522400 «**Kimyoviy texnologiya**» yo`nalishi kunduzgi ta'lim bakalavr

Tasdiqlayman
Kimyo-texnika
fakultet dekani
dots. Babaev Z.K.
“ ____ ” _____ 2013 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO`YICHA TOPSHIRIQ

Talaba **Allaberganov Umrbek Maxmudovich**

1. Ishning mavzusi: **Yangiariq tumanida shisha paxta ishlab chiqarish tsexini loyixalash.**

« ____ » _____ 2013 yil universitet rektorining _____ sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “ ____ ” _____ 2013 y.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati

a) Otaqo'ziev T.A., Turobjonov S.M., Muxamedbaeva Z.A. Kimyo sanoati jixozlari va ishlab chiqarishning ekologik muammolari. Toshkent. TDTU nashriyoti, 2002 y, 121 b.

b) A.A.Ismatov, T.A.Otaqo'ziev va boshqalar. Noorganik materiallar kimyoviy texnologiyasi. T. «O'zbekiston» 2002.

v) Ilevich A.P. Mashini i oborudovanie dlya zavodov po proizvodstvu keramiki i ogneuporov. M. «Visshaya shkola», 1979

g) T.A. Otaqo'ziev, Z.A. Muhamedboeva. Kimyo sanoatida maydalash. T. «O'zbekiston» 2004 yil.

d) Лащинский А.А., Толчинский А.Р. Основы конструирования и расчёты химической аппаратуры. Справочник. Л., Mashinostroenie, 1970.

e) Genkin A.E. Oborudovanie ximicheskix zavodov. M., Visshaya shkola, 19784.

4. Ishning maqsadi Yangiariq tumanida shisha paxta ishlab chiqarish tsexini loyixalash.

5. Chizma materiallar ro'yxati Bosh reja, texnologik sxema, avtomatika, asosiy uskuna, iqtisodiy qism.

6. Maslahatchilar Babayev Z.K. Ischonov F.O.

Bo`limlar	Maslahatchi F.I.Sh.	Imzo, sana Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi
Kirish	Matchonov Sh.K.		
Tanlangan mavzuni texnik iqtisodiy jihatdan asoslash	Matchonov Sh.K.		
Texnologik qism	Matchonov Sh.K.		
Ekologik masalalar yechimi	Matchonov Sh.K.		
Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va kompyuterlash tizimida nazorat qilish	Matchonov Sh.K.		
Inson faoliyatining xavsizligi	Matchonov Sh.K.		
Iqtisod qismi	Matchonov Sh.K.		

Ishga taqriz yozuvchining F.I.Sh., ilmiy darajasi, unvoni: Umumiy kimyo kafedrası mudiri dots. Xasanov Sh.

7. Ilmiy rahbar: **dots. Matchanov Sh.K.**

BMI bajaruvchi talaba: **Allaberganov Umrbek Maxmudovich** _____
(F.I.Sh.) (imzo)

Kafedra mudiri: **Quramboev Sh** _____
(F.I.Sh.) (imzo)

MUNDARIJA.

I. Kirish.....	2
II. Tanlangan mavzuni texnik iqtisodiy jihatdan asoslash.....	4
III. Texnologik qism.	
3.1. Ishlab chiqarish fizik - kimyosining nazariy asoslari.....	7
3.2. Texnologik sxema tanlash, asoslash va uning tavsifi.....	13
3.3. Xom-ashyo, yordamchi materiallar haqida to'la ma'lumot.....	16
3.4. Texnologik hisob-kitob. Material va issiqlik balansi.....	18
3.5. Tayyor mahsulotning analitik nazorati.....	48
IV. Ekologik masalalar yechimi.....	58
V. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va kompyuterlash tizimida nazorat qilish.....	61
VI. Inson faoliyatining xavsizligi.....	65
VII. Iqtisod qismi.....	67
VIII. Xulosa.....	74
IX. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	75

KIRISH

Respublikamizning mustaqillika erishgandan keyin davlatimiz oldiga yuksak vazifalar maqsad qilib qo'yildi. Bu maqsadning eng asosiy va e'tiborli tomoni shundan iboratki xech kim bilmagan va yaxshi tanimagan O'zbekistonimizni yaqin kunlar ichida butun jaxonga tanitish va kelajakda buyuk demokratik davlat qurishdir. Shu jumladan davlatimizni yuksalishi uchun uzoqni ko'zlagan holda vatanimiz ravnaqi uchun tegishli dasturlar ishlab chiqariladi.

Yosh mustaqil O'zbekistonni har tomonlama rivojlanishidakimyo sanoati korxonalarining axamiyatijuda katta rol o'ynaydi. Xozirgi kunda mamlakatimizga chet el investitsiyalarini kirgizish orqali ham yangidan yangi texnologiya va uskunalar yordamida qurilma, korxonalar tashkil etilib sifatli maxsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Bugungi kunda kimyo sanoatidagi eng dolzarb mavzu bu chiqindisiz va kam chiqindili ishlab chiqarishni tashkil etishdir.

Fan va texnika jadal rivojlanish natijasida boshqa materiallar qatori maxsus tolalar ham talab qilinmoqda. Olimlarimiz maxsus xossalarga ega bo'lgan chunonchi: issiqlikka chidamli, ion almashinuvchi, yonmaydigan, bakteriotsit va boshqa muxum xassali tolalar olish ustida ilmiy tekshirish ishlari olib borilmoqda. Bunday tolalar bizga ma'lum tolalarni ximyaviy modifikatsiyalab yoki yangi usulda olinishi mumkin.

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufo'zi va mavqei sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari Islom Karimov tomonidan ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohatlar maqsad va vazifalari amalga oshirish yo'llarining aniq va to'g'ri ko'rsatib berilganligi bosh maqsad yo'lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo'lishiga imkon yaratadi.

Dunyo bo'ylab 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llari izlanmoqda.

Mamlakatimizda global inqirozning oqibatlarini hisobga olgan holda, qat'i har

tomonlarni o'ylangan keng ko'lamli loyihalar bug'un amalga oshirilmoqda. Albatta mamlakatimizda bunday chora tadbirlar tatbiq qilinishi bilan bir qatorda bu jiddiy sinovni yengish hech shubhasiz, ko'p jihatdan hammamizdan avvalo ma'suliyatimizni teran his qilishni barcha imkoniyat va resurslarimizni ishga solishni talab qiladi [2].

Bizning keyingi yillarda eksport sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlarimiz, avvalo, mamlakatimiz iqtisodini tubdan tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda biz uchun mutlaqo yangi, lokomotiv ro'lini bajaradigan tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzulmasini shakllantirish borasida o'z vaqtida boshlangan, chuqur o'ylangan va uzoq istiqbolga mo'ljallangan ishlarimizning natijasidir.

Inqirozga qarshi chora dasturining konkret bo'limlari –belgilangan kompleks chora –tadbirlar asosiy vazifalarni hal etishga qaratilgan.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach ishlab chiqarishga xususan kimyo sanoatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu jumladan kimyo sanoatini muhim bir bo'g'inlaridan biri bu shisha ishlab chiqarish sanoatidir. Shisha sanoatini rivojlanishi bevosita jamiyat rivojlanishi bilan bog'liqdir. Tabiatda shisha bilan raqobatlasha oladigan moddalar juda kam. Chunki shisha shaffof, tiniq, issiqlikka va sovuq iqlimga, ishqoriy muhitlarga ham chidamli bo'lib korroziyaga ham bardoshlidir. Yillar mobaynida ulkan tog'lar ham korroziyaga uchrab yemirilishi mumkin, lekin shisha yillar mobaynida xam har qanday ta'sir ostida yemirilmay asl holatida turaveradi.

II. TANLANGAN MAVZUNING TEXNIK IQTISODIY JIXATDAN ASOSLASH.

Bug'ungi kunda Respublikamizda tadbirkorlikka, yangi turdagi maxsulotar ishlab chiqarishga katta e'tibor berilmoqda. Axoli soni o'sgan sari uning xar xil turdagi qurilish materiallariga bo'lgan talabi oshmoqda. Axolining bu turdagi maxsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda Respublikamizdagi mahalliy mineral xom ashyo materiallarini o'zlashtirib yangi turdagi yoki chetdan valo'ta xisobiga olib keltirilayotgan qoplama materiallarini ishlab chiqarish talab qilinadi. Bunday ishlab chiqarishlarni tashkil qilishda axoli soni uning yashash sharoitini ishchi ko'chi, qurilish maydoni, muxandislik kommunikatsiyalari e'tiborga olinishi kerak.

Loyihalanayotgan tsex zavod tarkibida yoki shunga yaqin va qulay joylarda, enyergetik baza, gaz ta'minoti, suv ta'minoti e'tiborga olinishi kerak. Men shularni e'tiborga olgan xolda Yangiariq tumani markazining janubida ishlab chiqarish zonasida loyihalashga kirishdim.

Bu ishlarni yaxshi yo'lga qo'yish unumdorlikni va maxsulot sifatini oshirish kimyo sanoatining shu tur maxsulotiga bo'lgan talabini qondirish biz loyihalayotgan tsexning ishlab chiqarish quvvatini to'g'ri tashkil etish muxandis texnologlarning vazifasidan biri xisoblanadi [5].

Qurilish maydoni tanlash

Shisha paxta ishlab chiqarish tsexi Yangiariq tumanining janubida ishlab chiqarish zonasida loyihani amalga oshirmoqchiman. Chunki shaxarda gaz, elektr energiyasi mavjud. Bundan tashqari Urganch davlat univyersiteti kimyo texnika fako'lteti kimyoviy texnologiyalar yo'nalishi talabalari men loyihalayotgan tsexda ishlashi mumkin. Shisha paxta ishlab chiqarish uchun ajratilgan yer maydonining geologik va gidrogeologik qatlamlari markazi loyiha filiallarining izlanishlari bo'limi tomonidan tekshirilishi mumkin. Tsexning poydevori tosh qum yerlaridan iborat bo'lgani uchun imoratning o'tirib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Yer osti suvlari va tuproq qatlami oddiy tsementlarga nisbatan emirilish ko'chi kattadir. Shularni xisobga olib bino poydevori maxsus yuqori markali tsementlardan tayyorlangan beton qorishmasidan tayyorlanadi.

Muxandislik kommunikatsiyalari

Men bitiruv malakaviy ishimni Yangiariq tumanida loyihalashga harakat qildim va dastlabki ishlarni hududning iqlim va tuproq sharoitlarini o'rganishdan boshladim. Bunda tuproqning konstruksiyasi va tashqi muhit temperaturasi bilan loyihalanayotgan karxonaning devor qalinligi va isitish sistemalarini tanlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Qishda o'rtacha sovuq harorat -15°C -17°C bo'ladi.

Yoz kunlari o'rtacha harorat $30-35^{\circ}\text{C}$ bo'lishini o'rgandim. Men bitiruv malakaviy ishimni loyihalashda karxonaning bosh rejasini to'zishda shamol yo'nalishini ham inobatga oldim. Chunki karxonadan chiqayotgan turli xil gazlar, har xil hidlar aholi yashash punktiga teskari holatda yo'naltirishiga harakat qildim. Ushbu ko'rsatkichlarini kamida 5-10 yillik natijalarga asosan o'rtacha oldim.

Tsex loyihasi bo'yicha quyidagi o't o'chirish moslamalari ko'rib chiqilgan. Loyiha bo'yicha shisha kremnezit ishlab chiqarish korxonasi amortizatsiyasi imoratning ichki qismi yong'inning oldini olish uchun ichki vodoprovod qurilgan, uning suv sepish ko'chi o't o'chirish vaqtida $2,5\text{ m/sec}$ va kirish qismida o't o'chirish qismi o'rnatilgan. Yong'in tashqaridan o't o'chirish gidratlari yordamida amalga oshiriladi. Tsexning yonidan katta vodoprovod quvuri o'tgan va shu vodoprovod orqali tsexga suv olib kelinadi [6].

Karxonani loyihalashda transport xarajatlarini kamaytirish va xom-ashyoni yo'qotishlarsiz karxonaga olib keltirish maqsadida 25-30 km gradusda xom-ashyo zonasi mavjudligini e'tiborga oldim.

Karxonaning elektr ta'minoti.

Korxonani elektr energiyani yuqori ko'chlanish tarmog'i 6Kvt va undan yuqori. Yuqoriroq ko'chlanish bilan uzaytirilishi nazarda tutildi. Korxonada elektr energiyasi transformator podstantsiyasi orqali 230-280 volt o'zgaruvchan tok bilan tarqatiladi. Korxonada transformator va GRP mavjud. Yuqori ko'chlanishli elektr energiyasi transformatorga ulanadi.

Gaz ta'minoti

Loyihalanayotgan korxona uchun muhim bo'lgan narsalardan biri gaz xisoblanadi. Gaz Yangiariq - Xiva yuqori bosimli liniyasida ulanadi. Men

loyihalayotgan shisha pishirish pechi bor bo'lib, pech yuqori haroratda ishlaydi. Shuning uchun ko'p miqdorda gaz sarflanishi kerak bo'ladi.

Transport ta'minoti

Tsexga xom ashyolarni olib kelish uchun asosan avtomobillardan foydalanamiz. Barcha xom ashyolarimiz avtomobil yo'llari orqali tashib keltiriladi. Korxona ichida xom ashyolarni uzatish jarayoni greyfyer kranlari, yarim maxsulotlar elektr vagonetkalarda, transportyerlarda amalga oshiramiz.

Ish kuchi ta'minoti

Korxonani ishchi ko'chi bilan Yangiariq kasb hunar kolleji bitiruvchilari yordamida ta'minlanadi. Malakali muxandis texnik xodimlari Urganch davlat universitetining kimyoviy texnologiyalar yo'nalishi bitiruvchilari va Toshkent kimyo texnologiya instituti bitiruvchilari yordamida amalga oshiriladi.

Men loyihalayotgan korxona sutkasiga uch smenada ishlaydi. Uch smena ishlashning asosiy sababi shundaki, uskunalarni bo'sh qo'ymasdan ularni kecha va kundo'zi ishlatish xamda, yuqori haroratda ishlaydigan pech qurilmamiz, issiqlik ishlov berish qurilmalarining uzluksiz ishlashini ta'minlash, Respublikamizda qurilish materiallariga bo'lgan talabning yuqorililigidir.

Suv ta'minoti

Shisha paxta ishlab chiqarish uchun suv asosan granula xosil qilish jarayonida ishlatilib, suv 70-80 % shu bo'limda ishlatiladi. Shuni xisobga olib tsex markaziy vodoprovod liniyasiga ulanadi. Bundan tashqari qo'shimcha suv ta'minoti uchun suv basseynini qurish loyihaga kiritilgan.

Maishiy xonalari extiyoji va isitish tarmog'i uchun korxonada issiq suvdan foydalaniladi. Issiq suv odatda sovuq suvga barbatyor bilan olinadi. Issiqlik almashinish apparatlaridan va kondensat liniyasidan chiqayotgan issiq suvni ishlashi issiqlik energiyasini tejashga olib keladi.

III. TEXNOLOGIK QISM

3.1. Ishlab chiqarish fizik-kimyosining nazariy asoslari

Shisha paxta – paxta shaklidagi tolali issiqlik izolyatsion material, odatda oddiy shisha tayyorlanadigan materialdan yoki shisha sanoati chiqindilaridan tayyorlanadi. Tayyorlanish usuliga ko'ra tola uzluksiz va shtapelli bo'lishi mumkin. Olinadigan tolalar mineralopaxtali issiqlik izolyatsion materialdan keng va uzun bo'ladi, shuning uchun shisha paxta yaxshi egiluvchanlikka va mustahkamlikka ega, shuningdek yuqori vibrobarqarorlikli ham bo'ladi. Shisha tola egiluvchan va yumshoq, shuning uchun tolalar orasidagi fovaklar havoga to'ldirilganligi sababli tovush izolatsiyasi ham bo'ladi, shuningdek shisha paxta bilan notekis sirlarni, xohlagan shakldagi konstruktsiyalarni qoplash mumkin.

O'ziga xosliklari:

- Shisha paxta yonmaydigan issiqlik izolatsiyasi va olov ta'sirida zararli moddalar ajratmaydi
- Shisha paxta yuqori tovush yutish xususiyatga ega, gigroskopik emas, eskirmaydi va kimyoviy barqaror
- Shisha paxtadan bo'lgan issiqlik izolyatsion materiallar engil, yumshoq va elastik
- Shisha paxta transportirovkada presslanadi, keyin esa o'zining dastlabki holatiga keladi
- Bu f o'tkazish va suvni itarish xossasiga ega.

Qo'llanilishi:

- To'siqlar tovush izolatsiyasi
- Yo'roch uylarni isitish
- Metallokonstruktsiyalarni isitish
- Tomni isitish
- Fasadni isitish

Shisha paxta kimyoviy barqaror, yonmaydi va cho'rlanmaydi, uning zichligi yumshoq holatda 130 kg/m³ dan oshmaydi.

Shisha paxta konstruktsiyalarda deyarli pasaymaydi. Uning tolalari uzoq chayqalish

va vibratsiyada sinmaydi.

U tovushni yomon o'tkazadi va yaxshi yutadi; sovuqqa chidamli. 5 sm qalinlikdagi shisha tola qatlamining termik qarshiligi 1 qalinlikdagi risht devornikiga teng.

Uzluksiz shisha toladan yaratilgan shisha paxta issiqlik izolatsiyalovchi materiallar va buyumolar olishda hamda konstruksiyalarni -200oS dan +450oS gacha haroratda issiqlik izolatsiyalash uchun qo'llaniladi.

Mineral paxta, shlakopaxta, shisha tola va shisha paxta – bu bugunda qurilishda ishlatiladigan mineral issiqlik izolatsiyaning asosiy turlaridan biri. Birinchi uchasi bo'yicha hamma narsa ma'lum – zamoanviy mineral issiqlik izolatsiyasi, uning ishlab chiqarish asosan chet elda amalga oshiriladi, mos yaxshi sifatga ega.

Zamonaviy shisha paxtaning asosiy afzalligi – xavfsizligi. Bu yonmaydigan isitgich, ushlaganda yumshoq, odam terisiga ta'sir qilmaydi, qurilish materiallari talablari va normalariga javob beradi.

Shisha paxta – universal isitgich. Uni harorat ko'rsatkichlari bo'yicha turli zonalarda qo'llash mumkin. Bunga material strukturasi sabab: shisha paxta harakatsiz havoni ushlash qobiliyatiga ega. Xonadagi harorat yozda va qishda barqaror bo'ladi.

Shisha tola va shisha paxtaning yana bir afzalligi bu issiqlik va tovush izolatsiyasi. Turli qattiq tovushlar faqat ular sodir bo'layotgan joyda eshitiladi.

Shisha paxta va shisha tola turlari qo'llanilish sohasiga ko'ra farqlanadi. Tashqi devorlar, tomlar va gorizontal qoplamalar uchun shisha tola mavjud. Materialni har bir turi o'z xossalariga ko'ra farqlanadi: birisini tovush izolatsiyasi, ikkinchisini esa issiqlik izolatsiyasi yuqori. Shakli ham turlicha: rulonla, plitalar.

Umuman olganda shisha deb nimaga aytamiz? Shisha deb ishqorli va gil tuproq ishqorli silikatlarni yuqori haroratda eritishdan hosil bo'lgan quyuq bo'tqa tez sovutilsa u shishasimon moddaga aylanishiga aytamiz. Shisha odatdagi xona haroratida qattiq va juda mo'rt yaltiroq ko'rinishda bo'ladi. Shisha amorf modda. Uning siqilish va egilishdagi mustahkamligi strukturasi bog'liq emas. Shuning uchun umuman bir jinsli bo'lganligi sababli shishaning mustahkamligi hamma yerida bir xil bo'ladi. Shuning uchun ham shisha turli maqsadlarda texnikada, qurilish materiali va turli xil shisha idishlar tayyorlashda va tok o'tkazuvchanligini juda

pastligi tufayli izolyatorlar sifatida ham foydalaniladi. Hozirgi kunda sanoatda keng ko'lamda ishlab chiqarilgan shishalarga qurilish shishasi va shisha idishlar kiradi [7].

Qurilish maqsadlari uchun ishlab chiqariladigan shisha buyumning xiliga va xom ashyoning tarkibiga qarab maxsus shisha erituvchi xumdonlarda 1500 °C gacha haroratda ishlab chiqariladi. Shishani qo'llanilishi maqsadiga qarab xom ashyo tarkibiga turli qo'shimchalar qo'shiladi. Qurilish shishasining asosiy xususiyatlari quyidagicha: hajmiy og'irlikka egaligi -2450-2550 kg/m³. Siqilish va egilishga chidamliligi 10000 va 450 kg/sm, qattiqligi-5-7, issiqlik o'tkazuvchanlik 0,6-1,15 k/kon/m qalinligi 2-6mm. Qurilish shishasining ko'p xususiyatlari bor shu tufayli ham u nodir metallar, minerallar va boshqa jinslardan ajralib turadi.

Qurilish shishasining bir qancha turlari mavjud bo'lib, ular qo'llanilishiga qarab quyidagi asosiy to'rt gruppaga bo'linadi.

1. List shisha – deraza oynasi, foto shishasi, naqshli shisha, silliqlangan shisha va boshqalar kiradi.
2. Qurilish-arxitektura shishasi shishadan yasalgan konstruktiv qurilish elementlari kabilar kiradi.
3. Ko'pirgan shisha – issiqlik izometsiyasini ta'minlovchi shisha paxta, tovush yutuvchi izometsion material filtrllovchi g'ovak shisha texnika maqsadlarida ishlatiladi.
4. Shisha quvurlar- devorining qalinligi 1-2 mm va diametri 0,1-40 mm bo'lgan yupqa tanali quvurlar shular jumlasidandir.

Keltirilgan shisha ishlab chiqarish sxemasidan hozirgi zamon shisha chiqarish texnologiyasining ancha murakkabligi va bir qancha maxsus operatsiyani o'z ichiga olishini ko'rish mumkin.

Kvars va ohaktosh singari qattiq xom ashyolar jag'li maydalagichlarda bo'lakchalarga ajratilib, temir oksidi kabi rang beruvchi birikmalardan tozalanadi. So'ngra ular aylanma pech yoki kamerali sushilkalarda quritiladi, konusli bolg'achali tegirmonlarda un holatiga keltiriladi, elangan qumtuproq ohaktosh va soda tortilib maxsus mashinalarda aralashtiriladi.

Manzarali rangli shisha ishlab chiqarishda esa bo'yoq sifatini mis, xrom, temir, kobalt va boshqa metallarning oksidlaridan foydalaniladi.

Qurilishda ishlatish uchun mo'ljallangan silikat shisha aralashmasi shisha zavodidagi maxsus pechlarda 1500 °C temperaturagacha pishiriladi. Pishirish jarayonini vanna pechlarida amalga oshiriladi.

Hozirgi paytda deraza oynalari vertikal yo'nalishda cho'ziladigan mashinalarda tayyorlanadi. Bu mashinalarda uzluksiz shisha lentasi solinuvchi moslamaning tirqishi orqali cho'ziladi.

Shishani „lodochka“ deb atalgan moslamasiz ham erkin cho'zish mumkin. Bunday usulda olingan shisha sifatliroq, shaffof va chiziqlarsiz bo'ladi. Mashinalarda qoliplangan eritmasi lentasi maxsus rejimda sovutiladi. Bu vaqtda shishaning ichki qo'llanishi yo'qola boradi. Lenta sovib mashinadan chiqa borishi bilan tegishli o'lchamlarda list qilib qirqiladi. Qirqish qalinligi 2-6 mm atrofida bo'lib o'lchami 250-250 dan 1600-2200 mm gacha bo'ladi [8].

Polirovkalangan vitrina shishasi va ko'zgu olishda ko'chlanishda holi qilingan shisha sayqallash va yaltiratish stanoklariga yo'naltiriladi. Dekarativ buyumlarga esa mexanik ishlovdan tashqari, kimyoviy va badiiy ishlov ham beriladi. Natijada mahsulot ham yaltirab, jilva berib turadigan bo'ladi. Maishiy xo'jalik shishasi bular qatoriga billur idish-tovoq, tara, ko'zgu, oyna, bezak archa o'yinchoqlari kabilar kiradi. Ular yordamida uy-joylar madaniy-maishiy muassasalar bezaladi va eksplatatsiya qilinadi.

Buning tarkibi asosan kremnizem, glinazem, ishqoriy yer va ishqoriy oksidlardan tashkil topgan xamda suyuq ,pastasimon va qattiq mahsulotlarni qadoqlash , saqlash va uzatish uchun xizmat qiluvchi shaffof amorf moddalardan yuqori temperaturalarda shakllash yo'li bilan olingan bo'yoqlarga maishiy xo'jalik shisha buyumlarga deb ataladi.

Maishiy xo'jalik shishalarning turlari ular asosan 3 katta qismdan iborat:

1. Tara shishasi
2. Sortli shisha
3. Badiiy-dekarativ buyumlar shishasi.

Shisha tarasi buyumlari o'z navbatida 2ta katta guruhga ajraladi:

1. Bo'g'zi tor shisha tarasi
2. Bo'g'zi keng shisha tarasi

Shisha hosil qiluvchi va modifikatorlar

Yakka holda eritish va sovitish yo'li bilan amorf modda hosil qiluvchi element, oksid hamda boshqa kimyoviy birikma shisha hosil qiluvchilar deb ataladi. Ular qatoriga oltingugurt, selen, margimush, fosfor, uglerod kabi elementlar; SiO_2 , GeO_2 , B_2O_3 , P_2O_5 , As_2O_3 , BeF_2 kabi oksid va birikmalar kiradi

Yakka holda shishasimon holatni hosil qilolmaydigan element, oksid va boshqa birikmalar modifikatorlar deb ataladi. Ularga TiO_2 , TeO_2 , SeO_2 , MoO_3 , WO_3 , Bi_2O_3 , Al_2O_3 , Ga_2O_3 , CaO , MgO , Na_2O , K_2O kabilar kiradi. Bunday oksid va birikmalar shisha hosil qiluvchilar ishtirokida osongina shishasimon holatni vujudga keltiradi. Ular ishtirokida shisha omixtasining erish haroratida pasayadi. Lekin hosil bo'lgan amorf moddaning mexanikaviy va kimyoviy xususiyatlari ham bir oz kamayadi.

Shisha omixtasi tarkibiga kiruvchi komponentlar sonining oshishi ham shishasozlikda ijobiy rol o'ynaydi. Masalan, $\text{Na}_2\text{O}-\text{CaO}-\text{SiO}_2$, $\text{CaO}-\text{Al}_2\text{O}_3-\text{B}_2\text{O}_3$, $\text{Me}_m\text{O}_n-\text{P}_2\text{O}_5-\text{V}_2\text{O}_5$ kabi sistemalar asosida shisha oson hosil bo'ladi.

Silikat tarkibli sanoat shishalarida SiO_2 , CaO va Na_2O bilan bir qatorda MgO va Al_2O_3 ham qatnashadi. Magniy oksidi shishalarining kristallanishiga bo'lgan layoqatini bir oz susaytiradi, aluminiy oksidi esa ularning kimyoviy turg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shisha hosil qiluvchi va modifikatorlar ustida A.A.Appen ko'p tadqiqotlar olib borgan [9].

Shisha pishirish etaplari, ularni shisha va olovbardosh materiallar tarkibi, harorat va yopishqoqlikka bog'liqligi.

Turli komponentlar aralashmasidan termik jarayon orqali bir tarkibli eritma

olish shisha pishirish deb ataladi. Buning uchun poroshok (ko'kun) yoki gronula xolatidagi shisha omixtasi vanna yoki boshqa xumdonlarga joylanib qizdiriladi va natijada, u suyuq shisha xolatiga o'tadi. Shisha xolatiga o'tish katta haroratli oralig'iga ($1440-1550^{\circ}\text{S}$) murakkab fizik, ximik jarayonlar orqali amalga oshiriladi. Xosil bo'lgan shishani amorf strukturali moddalarning asosiy vakili deb qarash mumkin. U suyuq haroratli eritmadan o'ta sovutish orqali paydo bo'ladi. Moddalarning shishasimon xolati bu qattiq, bir tarkibli, mo'rt, raqsimon kesimli shaffof jism holati bo'lib, ular tashqi ko'rinishidagi o'xshashlikdan tashqari umumiy fizik-kimyoviy xarakteristikalariga egaliklari bilan ajralib turadilar:

1) Shisha izotrop modda bo'lib, uning xossalari barcha yo'nalishlar bo'yicha bir xildir. Bu jixatdan shisha ko'b singiniyali kristall moddalarga o'xshab ketadi.

2) Shisha qizdirilganda kristallarga o'xshab ma'lum nuqtada erimaydi, balki asta-sekin yumshaydi. Bunday yumshash paytida u:

a) avval qattiq holatdan yuqori yopishqoq holatga o'tadi:

b) yuqori yumshoqli holat harorat ko'tarilishi sababli tomchi-suyuq holatga o'tadi. Bunday jarayonlar davrida faqat yopishqoqlik emas, balki boshqa xossalar ham uzluksiz o'zgaradi.

Yuqoridagilar sababli shisha pishirish jarayoniga «kongruent yoki inkongruent» erish tyerminini qo'llab bo'lmaydi. Sababi, birinchidan shisha omixtasi ko'p komponentlardan tashkil topgan bo'lib, unga kiruvchi komponentlar turli haroratlarda eriydi. Ikkinchidan, ko'p komponentli shisha omixtasi sistemalarida ma'lum sharoitlarda evtektika, qattiq eritma kabilar hosil bo'lishi tufayli ham erish nuqtalari o'zgarib ketadi. Natijada, komponentlar va ular asosida hosil bo'lgan birikmalar yuqori haroratlarda bir-birlari bilan eritma hosil qiladi, u o'ta sovutish yo'li bilan qotirilganda moddalarning alohida holati shishaga o'tadi. Bunday alohida holat shunisi bilan xarakterliki, unda boshqa birikma va oddiy moddalarga xos bo'lgan erish nuqtasi yo'q. Unda esa faqat «yumshash intyervali»gina mavjud.

3) shishalar qaytar jarayonda yumshaydi va qotadi. Agar shisha erigan haroratli eritma holatigacha qizdirilib, shu rejim bo'yicha sovitilsa, u o'zining avvalgi xususiyatli holatiga o'tadi (agar kristalizatsiya holati ro'y byermasa).

4) ma'lum sharoitlar hosil bo'lganda shishalarda kristallanishga moyillik paydo bo'ladi (masalan, oz miqdordagi katalizator shixta tarkibida bo'lsa yoki kristallanishga moyil haroratda uzoq ushlab turilsa).

Shisha pishirish nazariyasi besh etapda amalga oshiriladi hamda nomlanadi va oddiy tarkibli shishalar uchun harorat oralig'ida ro'y beradi:

1. Silikatlar hosil bo'lishi, 100-(950-1150°S).
2. Shisha hosil bo'lishi, 1150-1250°S.
3. Oqartirish (degazatsiya), 1250-(1500-1600°S).
4. Gomogenlash (o'rtalashtirish), 1250-(1500-1600°S).
5. Studka (sovitish), harorat 300-400°Sga kamaytiriladi va kerakli yopishqoqlikka erishiladi.

Oqartirish va gomogenlash harorat qancha yuqori bo'lsa shuncha yaxshi o'tadi, lekin yuqori haroratini belgilashdan avval qo'llanilayotgan olovbardosh g'ishtlar tarkibi va xossalarini inobatga olish zarur

Angliyalik olim V.Tyernyerning shisha jarayonlari klassifikatsiyasiga ko'ra, shisha pishirishda ikki jarayon-fizik va kimyoviy jarayonlar sodir bo'ladi. Birinchi fizik jarayonlarga kiradi:

- 1) Shisha omixtasini qizdirish.
- 2) Suvni uchib chiqib ketishi.
- 3) Shisha omixtasi komponentlarini erishi.
- 4) Paydo bo'lgan suyuqlikda komponentlarning erishi.
- 5) Polimorf o'tishlar.
- 6) Ba'zi bir komponentlarning uchib ketishi.

Ikkinchi kimyoviy jarayonlar qatoriga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1) Gidratlar dissotsiatsiyasi.
- 2) Kimyoviy bog'liq suvning chiqarib yuborilishi.
- 3) Karbonatlar, sulfatlar, nitratlar va pyerekis dissotsiatsiyasi.
- 4) Turli komponentlarning o'zaro aloqaga kirishi.
- 5) Silikatlar hosil bo'lishi.

3.2. Texnologik sxema tanlash, asoslash va uning tavsifi

Ishlab chiqarish texnologiyasi:

Xom ashyo shisha massagacha suyultiriladi. Suyuqlangan massaga markazdan qochma kuch ta'sir qilib, nozik tolalar shakllanadi, undan esa shisha paxta hosil qilinadi. Paxta yirgich orqali o'tib dastlabki gilam hosil bo'ladi. Ushbu gilam qotish uchun pechga joylanadi, keyin sovutiladi va ko'ndalangiga va bo'yiga kesiladi

Xom ashyo:

Tabiiy gazni yillik sarfi: 252×10^4 Nm

Suvni sirkulyatsion sarfi.

Siqilgan havoga ehtiyoj: $20 \text{ m}^3/\text{chas}$ 0.8 MPa.

Xom ashyoni yillik sarfi:

Kvars qumi: 1081 t.

Kaliyli dala shpati: 782 t.

Dolomit: 37.4 t.

Oxaktosh: 285.6 t.

Singan shisha: 3005.4 t.

Tozalangan soda: 660 t.

Natriy tetraborat: 945 t.

Fenolo-aldegid polimeri: 996 t.

Ammiak: 211 t.

Mochevina: 221 t.

Shisha paxta ishlab chiqish qurilmalarini texnologik jarayondagi ishi

Asosiy komponentlar retsepturaga mos ravishda bunkerga joylanadi, dozalovchi qurilmalar yordamida sistemadagi barcha qismlar yaxshilab aralashtiriladi. Tayyor aralashma suyuqlantiruvchi pechga kiritiladi va bu erda 1400-1500^oS da deyarli suyuq xolatgacha qizdiriladi.

Keyin suyuqlangan massa tsentrifugaga tushadi va bu erda buf yordamida mayda iplar olinadi. Qaynoq iplar tola hosil qilish tuguniga tushadi, bu erda ular polimer aerzollar (mochevina bilan modifikatsiyalangan fenoloaldegid polimeri eritmasi) bilan ishlanadi.

Qayta ishlangan iplar valtsevaniya tuguni – tolalarni butun mato yuzasi bo'yicha tekislash sodir bo'ladigan vallar sistemasiga o'tadi. Mato polimerizatsiya kamerasiga o'tkaziladi, bu erda u 250oS haroratda polimer bo'lar hosil qiladi, va aerozoldan qolgan ortiqcha namlik yo'qotiladi va quritiladi. Kameradan chiqish joyida shisha tola qattiq bo'ladi va qaxrabo-sariq tusga kiradi.

Keyin shisha paxta 20-30^oS gacha sovitiladi va kesish bo'limiga o'tadi. Bu erda u ko'ndalang arra va bo'yiga frezlar yordamida rulon va matlarga kesiladi.

Olingan shisha paxta havo bilan to'yingan bo'ladi va katta hajmga ega, shuning uchun keyin u presslash bo'limiga o'tadi, bu erda olti marta siqiladi. Presslangan material polimer plenkaga o'raladi, markirovkalanadi va tayyor mahsulot omboriga o'tkaziladi.

Shisha paxtani ishlatish sohalari:

- notekis sirtlar va turli konstruktsiyalarni qoplashda.
- to'siqlarni tovush izolatsiyasida.
- metall konstruktsiyalar, fasadlar, tomlar, yo'qoch uylar, devorlar, pollarni isitishda.

Shisha paxta ishlab chiqarish liniyasi

Shisha paxta xom ashyoni suyuqlantirib olingan, tartibsiz joylashgan shisha tolalardan tashkil topgan material. Shisha paxta ishlab chiqarish uchun xom ashyo vazifasini shisha pishirish uchun shaxta (kvars qumi, kaltsinirlangan soda va natriy sulfat) va shisha bo'laklari bajaradi.

Shisha tola kimyoviy barqarorligi va mustahkamligi bilan farqlanadi. Shisha paxtali buyumlar qurilish konstruktsiyalarini issiqlik izolatsiyasi uchun keng qo'llaniladi.

Shisha paxta ishlab chiqarish quyidagi texnologik jarayonlardan iborat:

1. vanna pechlarda 1300-1400oS da shisha massasini pishirish,
2. Shisha tola tayyorlash
3. buyumni shakllantirish.

Shisha tola suyuqlanmadan cho'zish yoki puflash usulida olinadi. Shisha tola shtabikli (shisha tayoqchalar suyuqlanguncha qizdiriladi va keyin aylanayotgan barabanga o'raladi) va filer (suyuqlangan shisha massasini kichik teshikli filtrlar

o'tkazish va aylanayotgan barabanga o'rash) usullarida olinadi. Puflash usulida suyuqlangan shisha massa siqilgan havo yoki buf oqimi ta'sirida changlanadi.

Shisha paxta ishlab chiqarish liniyasining texnik xarakteristikalar

Model	HIM-GW-3	HIM-GW-5	HIM-GW-8	HIM-GW-10	HIM-GW-15
Unumdorlik, t/god	3000	5000	8000	10000	15000
Yuza (uzunligi X eni), m ²	80x15	90x15	100x15	100x15	100x25
Liniya o'lchami (uzunligi X eni X balandligi), m ³	65x8x10	70x8x10	75x8x10	80x8x10	65x16x10
O'firligi, t	180	190	200	210	300
Quvvati, KVt	630	750	800	950	1300
Energiya manbai	220V/380V, 50Gts				

Shisha paxtadan mahsulotlar

Buyum	Zichlik (kg/m ³)	Razmer		
		uzunligi (mm)	Eni(mm)	qalinligi(mm)
List	25-100	1000-10000	500, 600, 630	20-100
Rulon	10-28	1000-15000	1000, 1200	30-150
Truba	Zichlik	Uzunligi	Ichki diametri	Qalinligi
	10-18	1000	18-315	30-100

3.3. Xom ashyo, yordamchi materiallar haqida to'la ma'lumotlar

Shisha paxta ishlab chiqarishda tabiiy va sintetik materiallardan foydalaniladi. Xom ashyo materiallari ikki asosiy guruhga bo'linadi.

1. Shisha hosil qiluvchi oksid (kislotali, ishqoriy va ishqoriy-yer hamda amfotyer)lar.

2. Yordamchi materiallar (oksidlovchilar, metall bilan biriktiruvchi oksidlar, «bo`g`uvchi»lar va bo`yovchilar).

Tabiiy xom ashyolarga kvars qumi, dala shpati, tuproq, kaolin, ohak, bo`r kabi minerallar kiradi. Ularning tarkibida asosiy elementlardan tashqari yot qo`shimchalar ham mavjuddir. Tabiiy xom ashyolardan foydalanish vaqtida bu yot qo`shimchalarni yo`q qilish, ya`ni boyitish lozim bo`ladi. Bundan tashqari, ularni maydalash, bir tarkibli massa holigacha keltirish zarur. Maydalash jarayonini jag`li, bolg`ali maydalagichlar, zoldirli tegirmonlarda amalga oshiriladi. Maydalangan komponentlardagi temir zarrachalari magnit separatori yordamida tortib olinadi (tozalanadi).

Kvars qumi yoki kvars uni shisha omixtasining asosiy qismini tashkil etadi. Shuning uchun bu xom ashyo tozalangan bo`lishi kerak, ya`ni tarkibida mavjud bo`lgan temir, titan oksidlardan tozalash, mumkin qadar ularning miqdorini juda ham kamaytirish lozim. Kvars qumni boyitishning bir necha usullari mavjud. Ularga qumni yuvish, flotatsiya qilish, elektrmagnit separatsiya usullari kiradi. Bundan tashqari, kimyoviy tozalash usuli ham mavjud.

Shisha kremnezit qoplamalari ishlab chiqarishda Rossiyaning Novoselovsk, Volinsk, Chasovyarsk va boshqa konlarining kvars qumlari ko`plab ishlatiladi. O`zbekistonning buxoro viloyatidagi Jyeroy koni qumlari ham talabni qondiradi.

Dala shpati, pegmatit va plavik shpati. Bu turdagi komponentlarni shisha omixtasiga qo`shishdan avval yuvish barabanida yuvilib, tegirmonlarda maydalanadi. Maydalangan material 0,4 mm o`lchamli xolga keltiriladi. Zirabuloq, Langar, Chupa va boshqa konlarning dala shpatlari, Ural, Eliseev, Volinsk va boshqa konlarning pegmatitlari ishlatiladi. Plavik shpati Xodabuloq, Toytyubinsk konlaridan olinadi.

Kaolin. Shisha omixtasi tarkibiga qo`shimcha sifatida kiritiladi. Asosan tarkibi toza bo`lgan kaolinlar Prosyonovsk, Glukhovsk konlarida uchraydi.

**Tuproq va bo`r.** Shisha omixtasi tarkibiga ko`shimcha sifatida kiritiladi. Ularni katta hovuzlarda suspenziya xoliga keltirib shisha omixtasi tarkibiga

qo`shiladi, ba'zan tuproq-keskichlardan o`tkazib keyin ishlatiladi.

Sintetik materiallar. Bu turdagi materiallarning tarkibi toza bo`lib, ular qo`shimcha ishlovni talab etmaydi. Ularga aluminiy oksidi, bor kislotasi, temir, miss, kobalt, nikel oksidlari, kriolit va boshqalar kiradi.

Sintetik materiallarning asosiy qismi yordamchi materiallar sifatida ishlatiladi. Masalan, qiyin aralashuvchi suspenziya olishda ammoniy molibdat $[(\text{NH}_4)_2\text{MoO}_4]$, barqaror suspenziya olishda natriy alyuminat NaAlO_2 , eruvchan shisha olishda silikat natriy $\text{Na}_2\text{O} \cdot m\text{SiO}_2 \cdot n\text{H}_2\text{O}$ qo`shimcha sifatida ishlatiladi [12].

3.4. Texnologik hisob-kitob. Material va issiqlik balansi

Xisoblash ishlarini olib borish uchun quyidagi dastlabki ma'lumotlarni bilishimiz kerak:

1. Chiqayotgan mahsulotning formasi va o'lchami.
2. Mahsulotning og'irligi
3. Tayyor mahsulot omboridagi yo'qotish
4. Pishirish quritish jarayonida hosil bo'lgan brok-2,5%
5. Xom ashyo materiallari miqdori

Kvars qumi-72%

Soda -23%

Ohaktosh -7%

Dolomit -4%

Sulfat -3%

6. Qoliplash jarayonida hosil bo'lgan brak-2%

7. Qoliplash jarayonogacha bo'lgan transportirovka bo'yich yo'qotish-0,4%

8. Maydalash, aralashtirish jarayonida hosil bo'lgan chang bilan yo'qotish-0,5%

9. Pishirish jarayonidagi yo'qotish-2%

10. P.P.P ga yo'qotish-12%

Material balansini hisoblash

Topshiriq bo'yicha menga 1-yilda quyidagi miqdordagi xom-ashyolar kerak:

- a) Kvars qumi – 38800 t (tonna)
- b) Soda - 12420 t
- c) Oxaktosh - 3780 t
- d) Dalamit - 2160 t

Ombordagi yo'qotishni e'tiborga olgan xolda xom-ashyo materiallar miqdori quyidagicha hisoblab topiladi. Ombordagi yo'qotishni 0,2 % foiz deb xisobga olib, quyidagicha formula orqali hisoblaymiz.

$$M = m \frac{100}{100 - 0,2\%}$$

